

OYBEKNING "NAVOIY" VA ISAJON SULTONNING "ALISHER NAVOIY"
ROMANLARINI QIYOSIY O'RGANISH ORQALI TALABALARDA MUSTAQIL
FIKRLASHNI SHAKLLANTIRISH

Qodirova Muntazamxon Sharifjon qizi

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Ona tili va adabiyot ta'limi fakulteti o'zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi magistratura talabasi

Q.Yo'ldoshev

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti ilmiy rahbar, p.f.d., prof.

Yangi O'zbekiston barpo bo'layotgan bugungi davrda – jamiyat XXI asr talabaga jiddiy talablar qo'yimoqda. U mustaqil bilim olish imkoniga ega bo'lishi, muammolarni hal qilishda bilimlarini amalda qo'llashi, ma'lumotlar bilan ishlashi, ularni tahlil qilishi, umumlashtirishi, munozaraga kirishishi, mustaqil fikrlay olishi, muammolarni hal qilishning oqilona usullarini izlashi, kommunikativ bo'lishi, turli ijtimoiy guruhlarda muloqot o'rnatish olishi, hayotiy vaziyatlarga tez moslasha bilishi lozim. Bular oson emas, ammo imkoni bor. Talabaning kelajakda ijtimoiy muvaffaqiyatga erishishiga yordam berish uchun o'qitish uslubini ham o'zgartirish kerak. Oddiy fan o'qituvchilari ijodkorlarga aylanishlari kerak, dirijyor, rejissyor, tashkilotchiga aylanishi kerak. Uning vazifasi talabalarni faol ijodiy faoliyatga jalb qilish bo'lib, unda o'quv jarayoni ishtirokchilari bir-biri bilan o'zaro munosabatda bo'lishadi, muloqot o'rnatadilar va mustaqil ravishda bilim oladilar.

Mustaqil fikrlashni rivojlantirish – bu talabalarda idrokning bilim va ma'lumotga ochiqqligi, axborotni tahlil qilish qobiliyati, muammoni yaxlit ko'ra olish, harakatchanlik, erkin fikrlash, ijodkorlik, bag'rikenglik, shaxsiy tanlov va uning natijalari uchun mas'uliyatni sezish kabi xislatlarni rivojlantirish demakdir. Boshqacha qilib aytganda, tanqid shaxsiy xususiyatlarni shakllantiradi, bu insonning ijtimoiy muvaffaqiyat sari birinchi qadamidir. Mustaqil fikrlashni shakllantirish talabalarning filologik kompetensiyasini shakllantirish ustida ishlaydi. Ushbu texnologiya bo'yicha dars uch bosqichni o'z ichiga oladi: qiyinchilik, tushunish va aks ettirish. Qiyinchilik yangi bilimlarning paydo bo'lishiga turtki beradi. Tegishli va qiziqarli ma'lumotlar yaxshi o'zlashtiriladi. Shuning uchun mazkur bosqichda talabalarni bilimga undash muhimdir. Ular bilishni istashlari kerak. Ana shu jarayon mobaynida talaba badiiy asarni o'qiydi, o'zlashtiradi va tahlil qilishga o'tadi.

O'zbek adabiyotida xalqimiz tarixining eng shonli zarvaraqlarini teran badiiy tahlil qilishga bag'ishlangan bir qator yirik hajmdagi asarlar yaratilgan. Xalqimiz tarixining turli bosqichlarini tasvirlash, millatimizning ijtimoiy va ma'naviy hayotida muhim ro'l o'ynagan iste'dod sohiblari shaxsiyatining jamiyat taraqqiyotida tutgan o'rni va ahamiyatini ko'rsatib berish, tarixiy voqelik va shaxs munosabatini yoritish, shuningdek, davlatchiligimiz tarixi va milliy qadriyatlarimizning tarixiy-hayotiy asoslarini oydinlashtirish o'zbek tarixiy romanlarining o'ziga xos milliy xossalarini tashkil etadi. Tarixiy mavzuda yozilgan badiiy

asarlar, xususan, romanlar xalqimiz o'tmishining badiiy solnomasi bo'lib xizmat qildi. Ajdodlarimiz shaxsiyatini to'liq anglab etishimiz uchun ko'plab badiiy asarlar va turli kinofil'mlar yaratildi. Xususan, Isajon Sultonning "Alisher Navoiy" romani fikrimiz isbotidir. Ushbu roman Navoiyshunoslik sohasidagi eng katta yutuqlardan biri bo'ldi desak mubolag'a bo'lmaydi. Ana shunday asarni tuhfa qilgan istedadli yozuvchi Isajon Sulton (Sultonov) 1967 yil 6-aprelda Farg'ona viloyatining so'lim go'shalaridan biri Rishton tumanining Avazboy qishlog'ida tavallud topdi. O'rta maktabni a'lo baholarda tugatib, beg'ubor orzulari bilan Toshkentga yo'l oladi. Ilk bor omadini O'zbekiston Milliy universitetining jurnalistika fakultetiga o'qishga topshirib sinab ko'rdi. Taqdirning inoyatini qarangki, yuragida ishtiyoqi baland bo'lgan Isajon Sulton mazkur oliygohning talabasiga aylandi. Bu davrda juda ko'plab hayotiy, ilmiy va ijodiy tajribalarni to'playdi. O'zining hikoya qilishicha, milliy universitetni imtiyozli diplom bilan tugatish baxtiga sazovor bo'lgan. Ijod namunalari Respublika matbuoti sahifalarida 1986- yildan beri e'lon qilinib kelinmoqda. Ijodini birin-ketin hikoyalar yozish bilan boshlagan yozuvchi o'ziga xos uslubda yozilgan "Munojot" qissasini 1990-yilda, ya'ni yigirma uch yoshida e'lon qilgan. Keyinchalik, "Oydinbuloq" (1995), "Boqiy darbadar" (2011) kitoblari chop qilindi. Shuni alohida qayd etish zarurki, yozuvchi kim va nima haqida qalam tebratmasin, hamisha kishi diqqatini o'ylashga undaydi, inson qalbining teranliklariga kirib borishga harakat qiladi. Asarni o'qigan kitobxon qalbining bepoyon kengliklarida sayr qiladi va u yerdan ma'no izlaydi, kitobxonga sohir va beg'ubor ma'no hadya qiladi.

Biz tilga olayotgan Isajon Sultonning Alisher Navoiy romani esa 2021-yil Adabiyot nashriyotida chop etildi. Hazrat Alisher Navoiy nainki o'rta asrda yashab o'tgan bir mutafakkir, u har bir davr uchun zamon kishisi. U bizning donishmand zamondoshimizdir. Ulug' bobomiz asarlarini necha yuz yillar davomida tushunib o'qigan va bugun ham anglab o'qiyotgan insonlar o'z yuraklarini og'ritib qiynayotgan savollarga, o'z zamonasiga oid barcha ma'naviy va ruhiy muammolarga javob topa oladi. Shu ma'noda hayotda hidoyat qidirgan odam Hazrat Navoiydan so'rasa, shak-shubhasiz, topqusidir. Bani bashar to hazrat Navoiyga oshno karvoni adashmas. Insonlar bu benazir zotning zavol bilmas so'zlariga quloq tutar ekan, bu karvon xavfu xatardan xolidir. "Alisher Navoiy" –avvalo, Yaratgan Parvardigor va uning ijodi b'lmish inson zotiga, inson dahosiga ulkan muhabbat, cheksiz ixlos, zavqu shavq bilan dunyoga kelgan asar, desak yanglishmagan bo'lamiz". Isajon Sulton romanida Alisher Navoiy hayot va faoliyati bilan bog'liq jarayon buyuk so'z sultoni tomonidan yaratilgan "Xazoyin ul-maoniy" (Ma'nolar xazinasini) 1491-1496 yillarda tartib berilgan asaridagi kompozitsiyaga mos. "G'aroyib us-sig'ar", "Navodir ush-shabob", "Badoe' ul-vasat", "Favoid ul- kibor" deb atalgan qismdan iborat. Xalq orasida ushbu asar "Chor devon" nomi bilan ham yuritiladi. Asar qadimgi Hirot tasviri bilan boshlanadi. Ayniqsa, yozuvchi barcha ranglarni tabiat bilan bog'lab yoritadi. Kezi kelganda, umr bilan bog'liq tasvirlar e'tiborni tortadi: "Umr qanday ajoyib, hayot qanchalar shodmon! Ular qanchalik zo'r shavq ichida ekanligini birov bilsaydi! Hayot tarannumi, tiriklik shodligidir bahor!..."¹¹.

¹¹ I.Sulton. Alisher Navoiy. Roman. Toshkent. Adabiyot.2021 yil, B.4

Romanda Hirot ko'p o'rinlarda Hiri deb beriladi va adib uni xurosonliklar Hirotni mehr bilan shunday atashini ta'kidlaydi.

Voqealar jarayonida bola Alisherning yoshlik davri bilan bog'liq lavhalar maromiga etkazib tasvirlanadi. Alisherning yoshligidan so'zga, adabiyotga, tabiatga bo'lgan beqiyos mehri voqealar kechmishida ishonarli dalillar asosida gavdalantiriladi. Adibning ushbu romani haqida adabiyotshunos B.Karimning fikrlari ham e'tiborni tortadi: "Xamsa"ni tugallab zavqlanishlari, qolu hol holatlari, "Muhokamatul lug'atayn" muhokamalari, "Lison ut tayr" parvozlari-bularning barchasini yozuvchi juda teran anglaydi va Hazrat ijodining zavq-shavqqa to'la pallalariga munosib badiiy tasvir, izhoru ifodalar topadi"¹² Darhaqiqat, voqealar jarayoni bilan tanishish asnosida ushbu fikrlarning qanchalik to'g'ri ekanligiga ishonch hosil qilasiz. Anchadan beri o'zbek adabiyotida Alisher Navoiy siymosi yoritilgan asar yaratilmagan edi. Ma'naviy ehtiyoj tufayli yaratilgan asar kitobxonlar tomonidan iliq kutib olindi. Isajon Sulton tarixiy shaxs siymosini yorqin tasvirlash hamda o'sha davr ruhini berish uchun har bir detalni o'rganadi. Adibning Navoiy davrida yaratilgan asarlarni o'rganishi asar muvaffaqiyatini ta'minlagan omillardan biri desak mubolag'a qilmagan bo'lamiz. Romanda so'z sifatleri haqida to'xtalinib, lisonlar xususida fikrlar bildirilishida go'yoki turkiy tilning go'zalligi va boyligi e'tirof etilganday: "...Misol keltirsam, birgina tuyaning yuzlab ismi bordir. Chunonchi, urush tuyasini "jut" derlar. Qora rangdagisi "jalma", oqi "samha", kulrangi "malha", qora uzra sariq yo'llisi "sahba", tariq ranglisi "safra", oq-u qora aralashi "zarha" deyiladi. Yana, siyrak tukli tuyani "sufra", sut tuyani "xalfa", olti oylik bo'taloqni "huvar", bir yasharlisini "mahlul", ikki yasharligini "mafrud", uch-to'rt yasharligini "liqo", besh yoshdagisini "juz", olti yasharini "saniy", etti yasharini "ra'ba" deydilar"¹³. Ko'rinadiki, adib o'sha davr tilini ham juda chuqur o'rgangan. Yoki yana bir o'rinda, turkiyda otning yangi tug'ilgan bolasining turli nomlarini keltiradi: "...Endi turkchaga kelsak, turkchada ham jonzotning rangu tusi, yoshiga qarab o'nlab nomlari bor.Misol uchun, otning yangi tug'ilgan bolasi "qulun", yoshigayu jinsiga qarab "toychoq", "toy", "ayg'ir", "biya", tusiga qarab "to'riq", "saman", "bo'z", "olacha", "tarlon", "g'irko'k", "boychibor", "tulpor", "bedov", "qashqa" deyilgani kabi"¹⁴.

Adib Alisher Navoiyning yoshligini samimiyat bilan tasvirlaydi. Romanning dastlabki voqealaridanoq ulug' bobomizning yoshligidan o'zgacha ekanligi, bolalarcha fikrlashi bilan bog'liq voqeaning tasvirlanishi kitobxonda zavq va hayrat tuyg'usini uyg'otadi: "Alisher yapaloq toshlardan birini olib, otib ko'rgan edi, suv betida jilvalar hosil qilib ancha joygacha sakrab bordi. Bir ikki kez shunday qilgach, qo'lini suvga tiqib ko'rib: "-Muzdan ham sovuq ekan,-dedi seskanib.So'ng so'radi: -Tag'oyi, bu suvda baliqlar to'ng'ab qolmaydimi?..."¹⁵. Adib romani sabab Navoiy olami bilan chuqurroq tanishishga muyassar bo'lamiz. Asar mutolaasi bilan band bo'lgan o'rinlarda ba'zida quvonamiz, ba'zida ta'sirlanamiz.

¹² B.Karim. Hazrat Alisher Navoiyga ehtirom.Yangi O'zbekiston gazetasi, 2021 yil, 10 avgust, 160-son,B.6.

¹³ Yuqoridagi asar.B.28.

¹⁴ Yuqoridagi asar.B.28.

¹⁵ Yuqoridagi asar.B.7

Boshqacha aytganda, qahramonlar hayotini o'z hayotimizdek tasavvur qilamiz va ularning olamida yashaymiz. Shundan kelib chiqib, bir fikrni bildirish o'rinli deb o'ylaymiz. Adib Hazrat Navoiyning ijodkor sifatidagi xarakterini ochib bera olgan. Boshqacha aytganda, "Alisher Navoiy" romanida ijodkor Navoiyning shaxsiyati bilan tanishamiz. Asardagi har bir epizod romanning badiiy qiimmatini oshirgan. Alisher Navoiy obrazida odamiylik, do'stga sodiqlik, va'daga vafo, ezgulik, yaxshilik kabi go'zal fazilatlarni mujassamlashtirgan.